


26. Muattar kubning uchlariga 1 dan 8 gacha sonlarni shunday yozmoqchiki, natijada kubning har bir yog'i uchun shu yoqqa tegishli barcha uchlardagi sonlar yig'indisi bir xil bo'lishi kerak. U 6, 7 va 8 sonlarini rasmda ko'rsatilganidek yozdi. So'roq belgisi o'rnida u qaysi sonni yozishi kerak?



- (A) 1 (B) 2 (C) 3 (D) 4 (E) 5

27. Buvi o'zida bor konfetlarni nabiralarga teng bo'lib bermoqchi. U har bir nabirasining paketiga mumkin bo'lgan eng ko'p miqdordagi konfetlarni soldi. Har bir paketda 20 tadan konfet bor va yana 12 ta konfet ortib qoldi. Buvida boshida eng kamida nechta konfet bo'lgan bo'lishi mumkin?

- (A) 52 (B) 232 (C) 272 (D) 411 (E) 432

28. Diyor arqonni 12 ta teng bo'laklarga bo'lmoqchi bo'ldi va kesish kerak bo'lgan joylarni nuqtalar bilan belgiladi. Muhammad huddi shu arqonni 16 ta teng bo'laklarga bo'lmoqchi bo'lib, kesish kerak bo'lgan joylarni nuqtalar bilan belgiladi. Lekin Mushtariy arqonni barcha belgilangan nuqtalarda kesdi. Mushtariy arqonni nechta bo'lakka bo'ldi?

- (A) 24 (B) 25 (C) 27 (D) 28 (E) 29

29. E'zoza quyidagi bo'laklar yordamida shunday iloncha yasamoqchiki: uning boshi, dumi va ular orasida yana 1, 2 yoki 3 ta bo'lak bo'ladi. Quyidagi bo'laklardan nechta turli xil iloncha yasash mumkin?



- (A) 10 (B) 14 (C) 16 (D) 18 (E) 20

30. Anvar doskada uch xonali son yozdi. Keyin Bobur ushbu songa o'ng tomondan to'rtinchi raqam qo'shib yozdi va Anvarga: "Qara! Sen yozgan son 2024 ga oshdi" dedi. Bobur qanday raqam yozgan?

- (A) 2 (B) 3 (C) 4 (D) 8 (E) 9




Tanlov 75 daqiqa davom etadi. Har bir savolga faqatgina bitta to'g'ri javob mos keladi. Berilgan topshiriqlarning to'liq yechimini keltirish talab etilmaydi. Tanlovda maktab dasturidan tashqari savollar ham uchrashi mumkin.

2024 yil, 26-mart

5-6-sinflar


3 balli masalalar

1. Anora rasmni shtrix chiziq bo'ylab buklaganidan keyin qaysi katak huddi shunday boshqa katak bilan ustma-ust tushadi?



- (A) (B) (C) (D) (E)

2. Rasmda "iz bo'ylab sakrash" o'yini maydonining dastlabki bir nechta kataklari tasvirlangan. Har to'rtinchi katakdagi izlar takrorlanadi. Marjona kataklardagi izlarga mos ravishda sakraydi.



Marjona nechanchi katakka faqat o'ng oyog'i bilan sakraydi?

- (A) 10 (B) 15 (C) 20 (D) 22 (E) 23


3. Sarvar inglizcha so'zlarni shifrlash uchun sirli alifbo o'ylab topdi.

U "basil" (rayhon) so'zini ko'rinishida, "red" (qizil) so'zini esa ko'rinishida yozdi. U "bread" (non) so'zini qanday ko'rinishida yozadi?


- (A) (B) (C) (D) (E)

4. O'ng tomondagi rasmda har ikkala bolaning qo'lida alohida varrak bo'lishi uchun rasmning o'rtasini qaysi bo'lak bilan to'ldirish kerak?


- (A) (B) (C) (D) (E)




5. Donoda 3 ta turli xil bo'lakchalar bor. Dono ularni to'siq ortiga qo'ydi. Ularga old tarafdin qaraganda quyidagi tasvirni ko'rish mumkin:



Bo'laklarga orqa tarafdin qaraganda nimani ko'rish mumkin?




6. Madina rasmdagi chizikli figurani qog'ozdan qo'lini uzmaganda holda chizmoqchi. Har bir kesma uzunligi rasmda ko'rsatilgan. Madina eng kamida qanday uzunlikdagi chiziq chizadi?




- (A) 6 cm (B) 7 cm (C) 8 cm (D) 9 cm (E) 10 cm

7. Mahmudda 2 ta g'ildirak bor. Har bir g'ildirakda bir-biridan bir xil masofada joylashgan 7 ta nuqta belgilangan. G'ildiraklar qarama-qarshi yo'nalishlarda aylanadi va 7 minutda bir marta to'liq aylanib bo'ladi. Har minut oxirida har bir harf sonning qarshisida turadi. Rasmda aylanuvchi g'ildiraklarning dastlabki ikkita ko'rinishi tasvirlangan.



0 min




1 min

Boshida A harfi 1 sonining qarshisida, B harfi 2 sonining qarshisida va h.k. tartibda joylashgan. G'ildiraklar toki C harfi 2 sonining qarshisida turmagunicha aylanadi. Shu vaqtda F harfi qaysi sonning qarshisida turgan bo'ladi?


- (A) 1 (B) 4 (C) 5 (D) 6 (E) 7

22. Diagrammada bir-biri bilan tutashib turuvchi 4 ta to'g'ri to'rtburchak tasvirlangan. Bo'yalgan to'g'ri to'rtburchak yuzasi nechaga teng?

- (A)  $12 \text{ cm}^2$  (B)  $14 \text{ cm}^2$  (C)  $16 \text{ cm}^2$   
(D)  $18 \text{ cm}^2$  (E)  $20 \text{ cm}^2$




23. Rasmda shahardagi 7 ta tramvay yo'llarining sxemasi ko'rsatilgan. Bekatlar doiralar bilan ifodalangan. Mardon liniyalarni shunday bo'yamoqchiki, natijada umumiy bekatga ega bo'lgan har qanday ikkita liniyaning ranglari har xil bo'lishi kerak. U eng kamida nechta rangdan foydalanishi mumkin?



- (A) 3 (B) 4 (C) 5 (D) 6 (E) 7

24. Damir rasmda ko'rsatilgan chizmadan kub yasamoqchi. Birlashganida kub qirralarini hosil qiluvchi uchburchaklar bir xil rangda bo'lishi kerak. Chizmaning bo'yalmagan kvadratidagi uchburchaklarni u qanday ko'rinishda bo'yashi kerak?



- (A) (B) (C) (D) (E)


25. Sulaymon 4 ta chashka olib, ularni 4 ta likopchalar ustiga tasodifiy ravishda qo'yadi.



Quyidagi mulohazalarning qaysi biri to'g'ri?


- (A) Hech qaysi chashka o'ziga mos likopchada turmasligi aniq.  
(B) Faqat bitta chashka o'ziga mos likopchada turishi aniq.  
(C) Roppa-rosa 2 ta chashka o'ziga mos likopchada turishi mumkin emas.  
(D) Roppa-rosa 3 ta chashka o'ziga mos likopchada turishi mumkin emas.  
(E) Barcha 4 ta chashka o'ziga mos likopchada turishi mumkin emas.

18. Anora 1 dan 10 gacha sonlarni diagrammadagi doiralarga shunday yozib chiqmoqchiki, natijada har bir doirada faqat 1 ta son bo'lishi kerak. U har qanday, masalan kulrang, qatorda joylashgan 4 ta doiradagi sonlar yig'indisi 23 ga teng bo'lishini xohlaydi. So'roq belgisi qo'yilgan doiraga u qanday son yozishi kerak?





- (A) 4 (B) 5 (C) 6 (D) 7 (E) 8

19. Kamron katta kvadrat burchaklaridan 4 ta kichik kvadratlarni kesib oldi. Kvadrat qolgan qismining yuzasi uning dastlabki yuzasining yarmiga teng. Diagrammada kichik kvadratlar tomonlari uzunliklari ko'rsatilgan. Qolgan figuraning perimetri nechaga teng?



- (A) 36 (B) 40 (C) 44 (D) 48 (E) 52

20. Iroda boshqotirmaning har bir qatori va har bir ustunida 1, 2, 3 va 4 sonlarini faqat 1 martadan yozmoqchi. "Katta yoki kichik" belgilari (> va <) qaysi sonlar orasida bo'lsa, o'sha sonlar uchun to'g'ri munosabatni ifodalashi kerak. O'ng tomondagi namunada ko'rsatilganidek, tengsizlik belgilari istalgan tomonga ishlaydi.



Kulrang doira ichiga u qanday son yozishi kerak?

- (A) 1 (B) 2 (C) 3 (D) 4 (E) 2 yoki 3



### 5 balli masalalar

21. Stolda 3 ta g'aroyib, lekin mutlaqo bir xil bo'lgan kublar turibdi. Stolga qaratilgan tomonlardagi sonlar yig'indisi nechaga teng?




- (A) 26 (B) 40 (C) 43 (D) 47 (E) 56


8. Yuk mashinasiga 6 ta quti rasmda ko'rsatilganidek joylangan. Yuk tashuvchi qutilarni yerga tushirmoqchi. U faqat 1 ta qutini ko'tarishi mumkin va buning uchun o'sha qutining ustida boshqa quti bo'lmasligi kerak. U yuk mashinasidan olgan qutisini yerga yoki boshqa qutining ustiga qo'yishi mumkin. Yuk tashuvchi o'z ishini tugatganida qutilar qanday ko'rinishda bo'lishi mumkin emas?



9. Javohirda 445 gramm og'irlikdagi quti va quyidagi rasmda ko'rsatilgan 8 ta tarozi toshlari bor:



Javohir qutini rasmda ko'rsatilganidek tarozi pallasiga qo'ydi.



Tarozi pallalarini muvozanatga keltirish uchun u eng kamida nechta toshlardan foydalanadi?


- (A) 2 (B) 3 (C) 4 (D) 5 (E) 6

10. Mehmonxonadagi xonalar 1 dan boshlab o'sish tartibida raqamlangan. Hech qaysi xona qolib ketmagan. Komil xonalardagi sonlarni sanab, 2 raqami 14 marta, 5 raqami esa 3 marta ishlatilganini ko'rdi. Mehmonxonada eng ko'pi bilan nechta xona bo'lishi mumkin?

- (A) 25 (B) 26 (C) 34 (D) 35 (E) 41

**4 balli masalalar**


11. Har birining yuzasi 18 ga teng bo'lgan 2 ta to'g'ri to'rtburchak rasmda ko'rsatilganidek bir-birining ustiga qo'yildi va natijada yangi to'g'ri to'rtburchak hosil bo'ldi.




Yangi to'g'ri to'rtburchakni 3 ta bir xil kvadratlarga bo'lish mumkin. Yangi to'g'ri to'rtburchakning yuzasi nechaga teng?

- (A) 24      (B) 27      (C) 30      (D) 32      (E) 36

12. Akmalda A, B, C, D va E deb nomlangan 5 ta qutida shokoladli konfetlar bor edi. Konfetlarga ularning shirinlik darajasiga mos ravishda raqamlar berilgan (rasmda ko'rsatilganidek).




Akmal konfetlarning katta qismini yedi. Quyidagi rasmda qaysi qutida qaysi konfetlar qolgani ko'rsatilgan.



X belgisi qo'yilgan quti qaysi quti edi?


- (A) A      (B) B      (C) C      (D) D      (E) E

13. Roziya o'ng tomonda tasvirlangan rasm hosil bo'lishi uchun bir nechta bir xil to'g'ri to'rtburchaklar chizmoqda. Rasmning eni va balandligi mos ravishda 45 cm va 30 cm ga teng. Bitta to'g'ri to'rtburchakning yuzasi nechaga teng?




- (A) 24 cm<sup>2</sup>      (B) 27 cm<sup>2</sup>      (C) 30 cm<sup>2</sup>  
(D) 33 cm<sup>2</sup>      (E) 36 cm<sup>2</sup>


14. Sardorda kvadrat shaklidagi qog'oz bo'lagi bor. U yulduz yasamoqchi bo'lib, qog'ozni rasmda ko'rsatilganidek bukladi va kesdi.



Unda qanday ko'rinishdagi yulduz hosil bo'ldi?




15. Rasmda yuzalari teng bo'lgan 2 ta katta kvadratlar tasvirlangan. Har bir kvadratning bir qismi bo'yalgan. Birinchi kvadratda qo'shni tomonlarining o'rtalari tutashtirilgan. Ikkinchi kvadratda tomoni katta kvadrat tomonining uchdan bir qismiga teng bo'lgan 4 ta kichik kvadratlar bo'yalgan. Birinchi kvadrat bo'yalgan qismining yuzasi 9 ga teng. Ikkinchi kvadrat bo'yalgan qismining yuzasi nechaga teng?



- (A) 4      (B) 8      (C) 9      (D) 10      (E) 12


16. Ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan Brayl sistemasida 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar rasmda ko'rsatilganidek oq va qora nuqtalar yordamida ifodalangan.



Nechta turli xil ikki xonali sonlar tarkibida roppa-rosa 5 ta qora nuqta bor?

- (A) 16      (B) 18      (C) 30      (D) 32      (E) 34

17. Rasmda 16 ta katakdan iborat asalari uyasi tasvirlangan. Ba'zi kataklarda asal bor. Har bir katakdagi son unga qo'shni bo'lgan nechta kataklarda asal borligini ko'rsatadi (umumiy tomonga ega bo'lgan kataklar qo'shni kataklar hisoblanadi). Bu uyaning nechta katagida asal bor?



- (A) 7      (B) 8      (C) 9      (D) 10      (E) 11